

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA‘LIM-TARBIYA BERISHDAGI VAZIFALARI.

**ADU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
kafedrasida katta o‘qituvchisi Xakimov.SH.T**

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘limtarbiya berishda bo‘ljak tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak.

Kalit so‘zlar: Pedagog, ta‘lim, ko‘nikma, bilim, malaka, tadbir

Abstract: When educating preschool children, the future teacher should look at the children with confidence, properly reward their hard work, independence, initiative and create an opportunity for them to work independently.

Key words: Pedagogue, education, skill, knowledge, qualification, application

Аннотация: При обучении дошкольников будущий педагог должен с уверенностью смотреть на детей, должным образом вознаграждать их трудолюбие, самостоятельность, инициативу и создавать им возможность работать самостоятельно.

Ключевые слова: Педагог, образование, умение, знания, квалификация, применение.

Jamiyatimiz hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda maktabgacha ta‘limda, maktabda, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida shakllanayotgan yosh avlod ijodiy xulq-atvor me‘yorlari va qoidalarini, kasb-hunar, malaka va ko‘nikmalarni har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas‘uliyatli vazifani bajaradi.

O‘z navbatida aytish mumkinki, tarbiyachining siyosiy yetukligi ta‘lim va tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o‘rtoqlarining o‘sishiga ko‘maklashishga yordam beradi. Albatta, tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish, ijtimoiy faol bo‘lish, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi kerak. Demak, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan bu muhim vazifani amalga oshirishda umumta‘lim maktablari bilan bir qatorda xalq ta‘limining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim muassasalari muhim o‘rin tutadi va ta‘lim samarasi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachiga bog‘liq. Aslini olib qaraydigan bo‘lsak, tarbiya fangina bo‘lib qolmay, balki san‘at hamdir, uni egallash uzoq vaqt davom etadi.

O‘zi o‘qiydigan, doimo bilimni oshirib boradigan kishi o‘qituvchidir, degan qoida tarbiyachiga ham bevosita taalluqlidir. Doimo o‘zini tarbiyalash bilan, tarbiya ilmi va san‘atini egallash bilan shug‘ullanadigan tarbiyachigina haqiqiy tarbiyachi bo‘la oladi. Bu borada xalqimizda —Bolani tarbiyalash tarbiyachining o‘z-o‘zini takomillashtirishidan boshqa narsa emas, —degan naql yuradi. Biz shuni esdan chiqarmasligimiz kerakki, tarbiya obyekti bo‘lgan bola uzluksiz o‘sadi, yildan-yilga tarbiya sharoitlari o‘zgaradi, bularning hammasi tarbiya ishida murakkab vazifalar yaratadi, bu esa tarbiyachidan ijodiy yondashishni talab etadi.

Tarbiyachining o‘ziga talabchanligi, o‘zining har bir xatti-harakatini nazorat qilib bora olishni davlatimiz maktabgacha ta‘lim muassasalari oldiga qo‘ygan talablarni muvaffaqiyatli amalga

o‘shirishning garovidir. Bunga quyidagilar misol bo‘la oladi: - bolaning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash; - aqliy qobiliyatlarini o‘stirish; jamiyatimizning, milliy madaniyatimizning g‘oyaviy-axloqiy prinsiplariga mos keluvchi e‘tiqod va qarashlarni tarkib toptirish; - ona – vatanga muhabbatni, ijtimoiy faollikni shakllantirish, mas‘uliyat, o‘rtoqlik, do‘stlik hissini, halollik, mehnatsevarlikni tarbiyalash. Albatta, yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish o‘zida kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi, ammo tarbiya shularga asoslanib bolalarni kelajakdagi mustaqil hayotga, mehnatga tayyorlash ishini ma‘lum maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Hozirgi kunda o‘qituvchilar, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarining malakasini oshiruvchi ilmiy-pedagogik markazlar kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 3-4 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Buyuk allomalarimizdan Rizouddin ibn Faxriddin aytadiki: —Har bir odam va har bir elning saodatli bo‘lishiga bosh sabab ilmdir. Ekinlar uchun yomg‘ir, sug‘orish qanday bo‘lsa, odam bolasi uchun ham shu darajada keraklidir. Bundan shuni anglash lozomki, bolalarni nojo‘ya so‘z, nojo‘ya xatti-harakatdan to‘xtab qolishga o‘rgatib, o‘zi esa o‘zini to‘xtata olmaydigan, bolalarni do‘stlik, o‘rtoqlikka o‘rgatib, o‘zi esa ular bilan o‘rtoq, do‘st sifatida emas, balki katta rahbar sifatida muomalada bo‘ladigan tarbiyachi yomon tarbiyachidir. Bu o‘rinda dono xalqimizning kamtarlik to‘g‘risidagi quyidagi hikmatini keltirib o‘tish joizdir. Ulug‘lik aylama zinhor, o‘zingni kamtar tut, Kimdaki bo‘lsa bu xislat ajab saodatdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga tarbiyachilarning ta‘siri ayniqsa katta bo‘ladi. Bola aqliy va axloqiy jihatdan faqat tarbiyachilarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sirida tarbiyalanadi, kamolga yetadi. Hech qanday shakllar, hech qanday intizom, hech qanday ustav hamda mashg‘ulotlar inson shaxsining sun‘iy ravishda almashtirishi mumkin emas.

Yosh qalb uchun bu quyoshning samarali nuridir, buni hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Bola shaxsining shakllanishida tarbiyachining yetakchi rol o‘ynashi, uning shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta‘sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi va bolalarning oiladagi tarbiyasi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Albatta, tarbiyachining pedagoglik mahorati ko‘p qirralidir. Mahorat kasbiy tayyorgarlikdan, nazariy bilim va ish tajribasini doimo oshirib borishdan, bolalarga bo‘lgan muhabbatdan vujudga keladi.

Xalq san‘ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san‘atni bilish, san‘atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma‘lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyaash va ularga ta‘lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi.

Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak va quyidagi shartlarga amal qilishi lozim buladi: 1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma‘lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan kishi bo‘lishi kerak. 2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta‘sir vositalarini topa oladigan bo‘lishi kerak. 3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham bo‘lishi ozim. Ta‘lim berishda texnikaviy

vositalardan samarali foydalana oishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalanishi lozim. 4. Tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarishi uchun bolalarda o‘sha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg‘ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak... Agarda tarbiyachi bolaga mehr-oqibat bilan munosabatda bo‘lsa, bolalar bilan uning o‘rtasida mehribonlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari yuzaga keladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘limtarbiya berishda bo‘lajak tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997, 63 b.
2. Jo‘rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o‘tish. Sinf rahbarlari uchun qo‘llanma. - T.: O‘qituvchi, 1994 y. -133 b.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik-majmua. -T.: O‘qituvchi, 1994 y. - 251 b.
4. Munavvarov A. Pedagogika. - T.: O‘qituvchi, 1996 y. - 200 b.